

AKKUMULYATOR BATAREYALARING O'Z-O'ZIDAN ZARYADSIZLANISHINI KAMAYTIRISH USULLARI

*Nurmatova Gulnoza Farxod qizi,
Jizzax politexnika instituti, magistr
Vaqqosov Sobir Sayfullayevich,
Jizzax politexnika instituti
Kimyoviy texnologiya kafedrasi katta o`qituvchi
www.sobirvak@mail.ru*

Annotatsiya: Jahonda bugungi kunda qayta tiklanuvchi energiya resurslaridan samarali foydalanish, mavjud energiya manbaalari resurslarini oshirish va energiyaning samarasiz yo`qotilishini kamaytirishga katta e'tibor berilmoqda. Turli sanoat korxonalarida ishlab chiqariladigan qayta tiklanuvchi energiya manbaalari, xususan akkumulyator batareyalarini ishlab chiqarishda zamonaviy texnologiya va tarkiblarni qo'llash, energiyaning bexuda sarf bo'lishining oldini olish va bunda zamonaviy texnologiyalarni qo'llash, yuqori iqtisodiy samaradorlikka olib keladi va bu ekologik nuqtai nazardan ham katta ahamiyatga ega. Turli maqsadlarga mo'ljallangan, iqlim sharoitlari turlicha bo'lgan regionlarda ekspluatasiya qilinadigan, xarorat keskin o'zgarganda, shuningdek gorizoontal va vertikal xolatlarda ishlay oladigan, o'z-o'zidan zaryadsizlanish darajasi kam bo'lgan zamonaviy kimyoviy tok manbaalari ishlab chiqarishda yangi texnologiyalarni joriy qilish ustida jahonda ko'plab tadqiqotlar olib borilmoqda

Kalit so'zlar: zaryadlanish, zaryadsizlanish, akkumulyator batareyalari, elektrolit, katod, anod, qo'rgoshin, sulfat, kislota, kalsiy, surma, gellar.

Dunyoda turli o'lchamdagagi va energiya sig'imi turlicha birlamchi energiya manbalari bo'lgan kislotali, ishqorli, litiy-ion kabi va boshqa akkumulyator batareyalari ishlab chiqarish jarayonlarini takomillashtirish, modernizasiya qilish bo'yicha qator, jumladan quyidagi ustuvor yo'naliishlarda tadqiqotlar olib borilmoqda: akkumulyatorlardagi musbat va manfiy elektrodlar tarkiblarini maqbullashtirish, separatorlar shakli va tarkiblarini qisqa tutashuvdan samarali himoyalovchi va elektrolitning nisbatan oson ko'tarilishini ta'minlab beruvchi g'ovaklikka va shaklga ega bo'lgan separatorlar ishlab chiqarish, o'z-o'zidan zaryadsizlanish darajasini kamaytirish va boshqalar [1].

Musbat faol massa oqib ketishini kamaytirish uchun quyuqlashtirilgan elektrolitlardan foydalanilganda tajribalarni bajarish uchun 1,7 % Pb, 1,3 % Sb, 97 % Cd qotishmasidan iborat oddiy musbat elektroddan va 1,0 % Pb va 99,0 % Sb dan iborat manfiy elektroddan foydalandik. Bunda elektrodlarni faol massa bilan qoplash, quritish, separatorlarni o'rnatish va boshqa tayyorlash jarayonlari korxonaning mavjud texnologiyalari asosida olib borildi. Quyuqlashtirilgan elektrolit tayyorlash uchun 6 % miqdorda pirogen kremnizemdan (SiO_2) iborat quyltiruvchi qo'shildi, natijada gel xoldagi elektrolit hosil qilindi. Bu elektrolit sinov akkumulyatoriga quyildi va separatorlarga shamilishi uchun ma'lum vaqt saqlandi, taqqoslash uchun esa namuna bilan bir xil konstruksiyada yig'ilgan akkumulyator oddiy elektrolit bilan to'latildi va elektrolitning shamilishi uchun ma'lum vaqtga qo'yib qo'yildi.


Ikkala akkumulyatorda ham elektrolit separatorga to'liq shamilgach, turli elektrolitlarda faol massaning separatordan oqib ketish jarayonlarini taqqoslash bo'yicha tajribalar olib borildi. Elektrolitning separatorlardan oqib ketishiga asosan akkumulyatorning zaryadlanish va zaryadsizlanish jarayonlari ta'sir qiladi [2].

Tajriba natijalari shuni ko'rsatdiki, boshlang'ich 20 ta siklda ikkala namunada ham zaryadsizlanish sig'imi bir xil natijalar berdi. Lekin ishlash sikllari ortgan sari zaryadsizlanish sig'imi bo'yicha ular orasidagi farq sezila boshladi (1-jadval).

1-jadval



Lobachevsky
University



**Faol massa oqib ketishining oldini olish uchun quyuqlashtirilgan elektrolitlardan
foydalanan tajriba natijalari**

Ishlash sikli, marta	Oddiy elektrolitli akkumulyator, A*soat	Zaryadsizlanish sig‘imi, %	Gel elektrolitli akkumulyator, A*soat	Zaryadsizlanish sig‘imi, %
1	60	92	60	91
3	60	95	60	93
5	60	100	60	100
10	60	97	60	96
20	60	95	60	95
30	60	86	60	93
40	60	79	60	91
50	60	75	60	88
60	60	72	60	86
70	60	70	60	83
80	60	69	60	82
90	60	68	60	80
100	60	66	60	79

1-jadvaldan ko‘rinib turibdiki, oddiy elektrolitli taqqoslash akkumulyatorida zaryadlanish-zaryadsizlanish jarayoni 50 siklga yetganda zaryadsizlanish sig‘imi 75 % ni tashkil qildi (talab bo‘yicha 80 % dan kam bo‘lmasligi kerak), shu sharoitda gel elektrolitli akkumulyator namunasida zaryadsizlanish sig‘imi 88% ni tashkil qildi, 90 sikl ishlaganda esa, bu ko‘rsatkich 80 % ga teng bo‘ldi, bu esa ularning hizmat muddatini 2 martaga oshirish imkonini beradi.

Tajribadan keyin akkumulyator elektrolitlari tekshirilganda taqqoslash akkumulyatoridagi faol massa suyulib, qisman oqib ketishi kuzatildi, idish tubida shlam hosil bo‘lganligini, tok uzatgichlarda korroziya boshlanganini ko‘rdik. Gel elektrlitli akkumulyatororda esa musbat faol massa saqlanib qolganligini, oqish alomatlari yo‘qligini, musbat tok uzatkichlar esa qoniqarli xolatda ekanligi aniqlandi. Gel xoldagi elektrolit elektrod bloki g‘ovaklarida faol massa mustahkamligini oshiradi, shu sababli uning oqib ketishi sezilarli darajada kamayadi. Bunda elektrolit akkumulyatorning barcha qismida suyuq xolda bo‘lganligi uchun ichki qarshiligi kam bo‘ladi.

Akkumulyator batareyalari o‘z-o‘zidan zaryadsizlanishiga xarorat va elektrod qotishmasining ta’siri o‘rganilganda biz nafaqat akkumulyator batareyalarining o‘z-o‘zidan zaryadsizlanishiga salbiy omillarning ta’siri va ularni kamaytirish usullarini, balki qo‘rg‘oshin-surmalı elektrodlarni boshqa tarkibli elektrodlarga almashtirish orqali bu omillarni kamaytirish ustida ishlar olib bordik. Kimyoviy tok manbalarining o‘z-o‘zidan zaryadsizlanish daroji, uning xizmat qilgan muddati va turiga, ya’ni xizmat ko‘rsatiladigan yoki hizmat ko‘rsatilmaydigan akkumulyatorlar ekanligiga bog‘liq [3]. Oddiy akkumulyatorlarda ular to‘liq zaryadlanganda, toza xolda bo‘lsa, $+10 \div -15^{\circ}\text{S}$ da, quruq xolatda saqlanganda, bu jarayon meyorda bo‘ladi. Bunda kuchlanishning pasayishi yangi va ekspluasiya qilingan akkumulyatorlarda mos ravishda turlicha bo‘ladi. Agar avtomobil akkumulyatori uzoq muddat ishlatilgan bo‘lsa, u xolda bu akkumulyatorlarda o‘z-o‘zidan zaryadsizlanish 8-10 % atrofida bo‘ladi, yangi akkumulyatorlarda bu ko‘rsatkich 6 % dan oshmasligi kerak. Xizmat ko‘rsatilmaydigan akkumulyatorlarda esa bu ko‘rsatkich 1 % dan oshmaydi. An’anaviy qo‘rg‘oshinli akkumulyatorlarda 3 yildan kam ishlagan tok manbaalari talablarga javob beradigan sharoitlarda saqlangan xollarda ham 4-5 oyda to‘liq zaryadsizlanadi.

Tajribalar natijasida akkumulyator batareyalari saqlanish vaqtining saqlash xaroratiga bog‘liqligi o‘rganildi. Yangi akkumulyatorlarning o‘z-o‘zidan razryadlanish daroji birinchi oyda sezilarsiz bo‘lib, vaqt o‘tirish va xaroratning ko‘tarilishi bilan bu ko‘rsatkich o‘zgardi. 2-jadvalda



12 V, 60 A/soat elektr sig‘imiga ega bo‘lgan qo‘rg‘oshin-surmali akkumulyatorning +10⁰S; +25⁰S va +40⁰S xaroratlarda o‘z-o‘zidan zaryadsizlanish darajalari keltirilgan.

2-jadval

**Qo‘rg‘oshin-surmali akkumulyatorning turli xaroratlarda
o‘z-o‘zidan zaryadsizlanish darajalari**

t/r №	Saqlash xarorati +10 ⁰ S		Saqlash xarorati +25 ⁰ S		Saqlash xarorati +40 ⁰ S	
	Saqlash muddati, oy	Zaryad- sizlanish darajasi, %	Saqlash muddati, oy	Zaryad- sizlanish darajasi, %	Saqlash muddati, oy	Zaryad- sizlanish darajasi, %
1	1	98	1	97	1	95
2	2	96	2	92	2	86
3	4	93	4	83	4	75
4	6	90	6	77	6	66
5	8	86	8	72	8	56
6	10	82	10	66	10	45
7	12	78	12	58	12	37
8	14	72	14	49	14	29
9	16	76	16	41	16	24
10	18	72	18	36	18	17

2-jadvaldan ko‘rinib turibdiki, saqlash xarorati qancha yuqori bo‘lsa, o‘z-o‘zidan zaryadsizlanish darajasi ham shuncha yuqori bo‘larkan.

Akkumulyatorlar 60 % gacha zaryadsizlangan bo‘lsa, ularni qayta zaryadlamasdan ishlatib bo‘lmaydi, bunda shunday xulosa qilish mumkinki, yangi akkumulyator batareyalari +10⁰S da 12 oygacha, +25⁰S da 7 oygacha +40⁰S da esa 4 oygacha ishchi xolatda saqlanishi mumkin.

Odatdagi qo‘rg‘oshinli akkumulyator batareyalarini ishlab chiqarishda, panjarali elektrodlarni tayyorlash uchun qo‘rg‘oshinga 1,7 % miqdorda surma qo‘shiladi. Bu izlanishlarimizda biz akkumulyatorning o‘z-o‘zidan zaryadsizlanish darajasini kamaytirish uchun surmaga nisbatan elektromanfiy bo‘lgan kalsiyidan foydalandik (surmaning standart potensiali $Ye = -0,14$ V, kalsiyuning standart potensiali $Ye = -1,87$ V). Bunda qaytar jarayonlar tezligining pasayishini unda jarayonga salbiy ta’sir qiluvchi surmaning yo‘qligi va kalsiyuning nisbatan elektromanfiyligi asosida tushuntirilishi mumkin.

Tajribalar natijalari shuni ko‘rsatdiki, an’anaviy elektrodlarning bunday tarkibli elektrodlarga almashtirilishi ekspluatasiya davomida elektrolitning yo‘qotilishini sezilarli kamaytiradi va o‘z-o‘zidan zaryadsizlanish darajasini pasaytiradi (3-jadval). Bunday akkumulyatorlarni elektrolit qo‘shish uchun qopqoqda ko‘zda tutiladigan tirqishsiz ishlab chiqarish mumkin. Olingan natjalarga ko‘ra, bu usulda tayyorlangan elektrodlar asosida xizmat ko‘rsatilmaydigan akkumulyatorlar tayyorlash imkonini beradi. Shu bilan birga bunday akkumulyatorlar o‘rnatilgan kuchlanishni aniq ta’minlab beruvchi elektr jixozlari o‘rnatilishini talab qiladi.

Akkumulyatordagi an’anaviy elektrodni yangi tarkibli elektrod bilan almashtirish natijasida olingan natjalarga tayanib, shunday xulosa qilish mumkinki, yangi akkumulyator batareyalari +10⁰S da 18 oygacha, +25⁰S da 12 oygacha +40⁰S da esa 10 oygacha ishchi xolatda saqlanishi mumkin ekan. Qo‘rg‘oshin-surmali elektrod tarkibidagi 1,7 % surmani nisbatan elektromanfiy bo‘lgan 0,1 % li kalsiyiga almashtirilganda o‘z-o‘zidan zaryadsizlanish darajasi bir oyda 6 % dan 4% gacha kamaygan. Bunday turdagи akkumulyatorlarda o‘z-o‘zidan zaryadsizlanish darajasi kamligi, ishchi suyuqlikning yo‘qotish darajasi kamligi tufayli xizmat ko‘rsatilmaydigan kimyoiy tok manbaalari tayyorlash imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. R. Deshpande. Battery Cycle Life Prediction with Coupled Chemical Degradation and Fatigue Mechanics/Journal of The Electrochemical Society, 2012, - №159 (10), P 1730-1738.
2. Bolun Xu, Modeling of Lithium-Ion Battery Degradation for Cell Life



Assessment/Article in IEEE Transactions on Smart Grid June, № 8, 2016, P 118-125.

3. Юдилевич С.Р., Коликова Г.А., Кривченко Г.В. // Сб. трудов по химич. источн. тока. С.-П.: Химиздат, 2004. - С. 56-68.
4. Юдилевич С.Р., Подалинский Ю.А., Коликова Г.А. // Электрохимическая энергетика.-2003.-Т.3, -№4, -С. 200-203.



TIAAME
Technical Institute of Advanced Materials Engineering



LOBACHEVSKY
UNIVERSITY

N⁺ Новосибирский
государственный
университет
настоящая наука



МФТИ